



THE ROLE OF THE MAHALLA INSTITUTION IN THE PRE-TRIAL RESOLUTION OF BUSINESS DISPUTES: DIGITALIZATION AND MECHANISMS OF INSTITUTIONAL COOPERATION

Sunnatillo Nurmatov

Doctoral Researcher at the Academy of Public Policy and Governance under the President of the Republic of Uzbekistan
s.nurmatov@dsba.uz

Akmal Turopovich Arziyev

Judge of the Interdistrict Economic Court of Karshi District
arziyev700@gmail.com
Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Neighborhood Institute, pre-trial resolution, dispute mediation, Alternative Dispute Resolution, digitization, e-government, institutional cooperation, improving the entrepreneurial environment, conflict prevention, neighborhood and business entities, digital platforms, online referral system.

Received: 27.04.26

Accepted: 28.04.26

Published: 29.04.26

Abstract: This article comprehensively analyzes the role of the neighborhood institution in the pre-trial settlement of disputes arising between business entities. In particular, the role of the neighborhood as a socio-legal institution, its potential for mediation and reaching agreements, and its relationship with mediation mechanisms will be studied. The article covers the practical activities of the mahalla institute in pre-trial settlement of business disputes and its institutional cooperation with economic courts. The article also analyzes the possibilities and advantages of resolving disputes online based on the concept of a "digital neighborhood" in modern conditions. Analyses show that the integration of the mahalla institution with mediation mechanisms will help reduce the burden on the courts, resolve disputes quickly and at low cost, and improve the business environment. However, the current system has been found to have problems such as insufficient legal authority, a lack of qualified mediators, and an underdeveloped digital infrastructure.

MAHALLA INSTITUTINING TADBIRKORLIK NIZOLARINI SUDGACHA HAL ETISHDAGI ROLI: RAQAMLASHTIRISH VA INSTITUTSIONAL HAMKORLIK MEXANIZMLARI

Sunnatillo Nurmatov

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi
akademiyasi tayanch doktoranti
s.nurmatov@dsba.uz*

Akmal Turopovich Arziyev

*Qashqadaryo viloyati Qarshi
tumanlararo iqtisodiy sud sudyasi
arziyev700@gmail.com
Qarshi, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mahalla instituti, sudgacha hal etish, nizolarni mediatsiya qilish, muqobil nizolarni hal etish, raqamlashtirish, elektron hukumat, institutsional hamkorlik, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, nizolarni profilaktika qilish, mahalla va biznes subyektlari, raqamli platformalar, onlayn murojaatlar tizimi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalla institutining tadbirkorlik subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni sudgacha hal etishdagi roli kompleks tarzda tahlil qilinadi. Xususan, mahallaning ijtimoiy-huquqiy institut sifatidagi o'rni, uning vositachilik va kelishuvga erishishdagi imkoniyatlari hamda mediatsiya mexanizmlari bilan o'zaro bog'liqligi o'rganiladi. Maqolada mahalla institutining tadbirkorlik nizolarini sudgacha hal etishdagi amaliy faoliyati, iqtisodiy sudlar bilan institutsional hamkorligi yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy sharoitda "raqamli mahalla" konsepsiyasi asosida nizolarni onlayn hal etish imkoniyatlari va uning afzalliklari tahlil etiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalla institutining mediatsiya mexanizmlari bilan integratsiyasi sud yukini kamaytirish, nizolarni tezkor va kam xarajat bilan hal etish hamda tadbirkorlik muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, amaldagi tizimda huquqiy vakolatlarning yetarli emasligi, malakali mediatorlar yetishmasligi va raqamli infratuzilmaning rivojlanmaganligi kabi muammolar mavjudligi aniqlangan.

РОЛЬ ИНСТИТУТА МАХАЛЛЕЙ В РАЗРЕШЕНИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ СПОРОВ ДО СУДА: ЦИФРОВИЗАЦИЯ И МЕХАНИЗМЫ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА

Суннатилло Нурматов

Базовый докторант Академия государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан

s.nurmatov@dsba.uz

Акмал Туропович Арзиев

Судья межрайонного экономического суда Каршинского района

arziyev700@gmail.com

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: институт соседства, досудебное урегулирование, посредничество в разрешении споров, альтернативное разрешение споров, оцифровка, электронное правительство, институциональное сотрудничество, улучшение предпринимательской среды, профилактика конфликтов, соседство и бизнес, цифровые платформы, система онлайн-апелляций, прозрачность и подотчетность, быстрое разрешение споров, инвестиционный климат, государство-частное партнерств, соседство и бизнес, цифровые платформы, система онлайн-апелляций.

Аннотация: В статье комплексно анализируется роль института соседства в досудебном разрешении споров между субъектами предпринимательства. В статье освещается практическая деятельность института махалли по досудебному разрешению предпринимательских споров, а также его институциональное взаимодействие с хозяйственными судами. Также анализируются возможности и преимущества разрешения споров онлайн на основе концепции «цифрового соседства» в современных условиях. Анализ показывает, что интеграция института махалли с механизмами медиации способствует снижению нагрузки на суды, быстрому и недорогому разрешению споров, а также улучшению предпринимательской среды. В то же время было выявлено, что действующая система имеет такие проблемы, как отсутствие достаточных юридических полномочий, нехватка квалифицированных посредников и неразвитая цифровая инфраструктура.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida mahallalarda xavfsiz va barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirish, aholining farovonligini oshirish hamda oilalarni kompleks qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida izchil amalga oshirilmoqda. Mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlarning muhim normativ-huquqiy asosi sifatida 2026-yil 5-yanvarda qabul qilingan PQ-1-son qaror alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi bosqichda mahalla instituti jamiyatda nafaqat ijtimoiy himoya mexanizmi, balki tadbirkorlik subyektlari va aholi o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni sudgacha tartibda hal etishda muhim institutsional bo‘g‘in sifatida shakllanmoqda. Xususan, muqobil nizolarni hal etish mexanizmlarining rivojlanishi doirasida mahallalar nizolarni murosa yo‘li bilan bartaraf etish, taraflar o‘rtasida konstruktiv muloqotni ta‘minlash va ortiqcha sud xarajatlarining oldini olishda samarali platformaga aylanmoqda.

Shuningdek, PF-209-son Farmon hamda “mahallabay” ishlash tizimi joriy etilishi natijasida mahalla institutining funksional imkoniyatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Endilikda mahallalar ijtimoiy yordam ko‘rsatish bilan cheklanib qolmasdan, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, hududiy muammolarni kompleks hal etish hamda huquqiy nizolarni mediatsiya asosida tartibga solishda faol ishtirok etmoqda [1].

Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, tegishli Prezident farmoni, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu hujjatning asosiy maqsadi — mahallalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, “mahallabay” ishlashga mas’ul subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning o‘zaro hamkorligini kuchaytirish, shuningdek, Konstitutsiyada belgilangan normalarga muvofiq fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati uchun zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Natijada, mahalla instituti zamonaviy bosqichda ijtimoiy boshqaruvning quyi bo‘g‘ini sifatida nafaqat aholining kundalik muammolarini hal etish, balki tadbirkorlik sohasidagi nizolarni samarali va tezkor ravishda sudgacha tartibda bartaraf etishda muhim huquqiy va institutsional mexanizmga aylanib bormoqda.

Islahotlarning hozirgi bosqichi davlat organlari faoliyatida nizolarni sudgacha ko‘rib chiqishning yag ona va izchil tizimini shakllantirish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Shu bilan birga, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitraj institutlarini fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari ishonchini qozona oladigan, samarali muqobil nizolarni hal etish mexanizmlariga aylantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Mazkur yo‘nalishda nizolarni muqobil usulda hal etish bilan shug‘ullanuvchi professional mediatorlarning o‘zaro birlashuviga asoslangan Mediatsiya markazlarini tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday markazlar orqali mediatsiya, hakamlik sudlari va xalqaro arbitraj faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, nizolarni muqobil tartibda hal etish jarayonlari uchun zarur tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlarni yaratish ko‘zda tutiladi. Shu bilan birga, mediatsiya va boshqa muqobil nizolarni hal etish usullarining rivojlanishini rag‘batlantirish, ularni keng ommalashtirish maqsadida ilmiy-amaliy seminarlar, treninglar hamda konferensiyalarni tashkil etish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur institutlarning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribani joriy etish ham mazkur sohaning rivojida muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Xususan, yetakchi xorijiy mediatsiya va arbitraj markazlari bilan institutsional hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro tajriba almashish, shuningdek, nizolarni hal etish

jarayonlariga xorijiy mediatorlar va arbitrlarni jalb etish orqali milliy tizimni takomillashtirish imkoniyati kengayadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi PQ-4754-son qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar doirasida Apellyatsiya kengashining asosiy vazifalari ham aniq belgilab berilgan. Unga ko‘ra, jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat organlari o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni sudgacha ko‘rib chiqish, ular yuzasidan asoslantirilgan xulosalar qabul qilish hamda nizolarni bartaraf etish choralari ko‘rish ushbu tuzilmaning ustuvor funksiyalaridan hisoblanadi [2].

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotda mahalla instituti va nizolarni muqobil hal etish tizimining huquqiy asoslari o‘rganildi.

Xususan, O‘zbekistonda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2023) Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020) hamda “Soliqqa oid nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2025) Qarorlari, shuningdek “Hakamlilik sudlari to‘g‘risida”gi (2006), “Mediasiya to‘g‘risida”gi (2018), “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi (2021) Qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2019) Qarori mazkur sohada huquqiy asoslarni mustahkamlash, nizolarni sudgacha hal etish mexanizmlarini rivojlantirish hamda iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda institutsional yondashuvni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda mahalla institutining tadbirkorlik nizolarini sudgacha hal etishdagi o‘rni va huquqiy mexanizmlarini o‘rganishda kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni, ularning huquqiy tabiati hamda o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi.

Shuningdek, qiyosiy-huquqiy usul yordamida O‘zbekistonda nizolarni muqobil hal etish tizimi boshqa davlatlar tajribasi bilan solishtirildi va mahalla institutining ushbu jarayondagi o‘ziga xos o‘rni aniqlab olindi.

Tizimli yondashuv orqali mahalla instituti, hokim yordamchilari, soliq organlari va boshqa ishtirokchilarning nizolarni hal etishdagi o‘zaro institutsional hamkorlik mexanizmlari yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqildi.

Natijalar tahlili. O‘zbekistonda mahalla institutining iqtisodiy nizolarni sudgacha hal etishdagi faoliyati tahlili ushbu tizimning ijtimoiy-huquqiy mediator sifatidagi ahamiyati ortib

borayotganini ko'rsatadi. Amaliyot shuni tasdiqlaydiki, mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan amalga oshirilayotgan yarashtiruv faoliyati tadbirkorlik subyektlari o'rtasida, shuningdek, aholi va tadbirkorlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni sudga olib chiqmasdan turib hal etish imkonini bermoqda. Bunday yondashuv nizolarni tezkorlik bilan taraflar o'rtasida ijtimoiy muvozanatni saqlagan holda bartaraf etishga xizmat qiladi.

Mahallabay ishlash tizimi doirasida hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniqlash va ularni barvaqt bartaraf etish mexanizmlarining joriy etilishi nizolar profilaktikasini kuchaytirgan. Xususan, startap loyihalar va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy to'siqlarni dastlabki bosqichda aniqlash orqali ularning nizoli vaziyatga aylanishining oldi olinmoqda. Bu esa mahalla institutining faqat nizoni hal etuvchi emas, balki uning kelib chiqishini oldini oluvchi subyekt sifatida ham shakllanayotganini anglatadi [3].

Mahallalarda faoliyat yuritayotgan hokim yordamchilari instituti esa mazkur jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular tomonidan tadbirkorlarga kredit ajratish, yer maydonlaridan foydalanish, subsidiya va boshqa iqtisodiy resurslarga oid masalalarda ko'rsatilayotgan amaliy va huquqiy yordam nizoli holatlarning yuzaga kelish ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga, ushbu institut tadbirkorlik subyektlari uchun doimiy maslahat va ko'mak markazi vazifasini bajarib, nizolarni boshlang'ich bosqichidayoq bartaraf etishga xizmat qilmoqda.

Mazkur natijalarni yanada chuqurlashtirgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-209-son Farmoni bilan belgilangan chora-tadbirlar mahalla institutining iqtisodiy va huquqiy munosabatlardagi rolini yangi bosqichga olib chiqayotganini ko'rsatadi. Ushbu normativ-huquqiy hujjat doirasida mahalla tizimi aholining muammolarini hal etishda "birinchi bo'g'in" sifatida mustahkamlanib, nizolarni sudgacha tartibda bartaraf etish imkoniyatlari institutsional jihatdan kengaytirilgan.

Xususan, mahalla tizimiga soliq organlari vakillarining integratsiyalashuvi, ya'ni soliq inspektorlarining bevosita hudud kesimida faoliyat yuritishi tadbirkorlik subyektlari bilan bog'liq iqtisodiy nizolarning oldini olishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular tomonidan tadbirkorlarga soliq xizmatlarini ko'rsatish, soliq bazasini kengaytirish, soliqlarni undirish hamda mahalla budjetining daromad qismini shakllantirishga qaratilgan faoliyat iqtisodiy munosabatlarning shaffofligini ta'minlash bilan birga, moliyaviy nizolar ehtimolini kamaytiradi. Bu esa o'z navbatida, fiskal intizomni mustahkamlash orqali iqtisodiy nizolarning preventiv yechimiga xizmat qiladi.

Shuningdek, hokim yordamchilari faoliyatining normativ asosda aniq belgilanishi ularning iqtisodiy nizolar profilaktikasidagi rolini kuchaytirgan. Ularning ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka yo'naltirish, doimiy daromad manbalarini shakllantirish, kredit va subsidiyalar ajratilishiga ko'maklashish borasidagi faoliyati aholining iqtisodiy faolligini oshirish orqali nizoli vaziyatlarning ijtimoiy ildizlarini bartaraf etadi. Amaliy ko'rsatkichlar — har oyda kamida o'n nafar ishsiz fuqaroni band qilish, har chorakda moliyaviy ko'mak olgan subyektlar faoliyatini monitoring qilish, shuningdek, o'zini o'zi band qilgan fuqarolarni tadbirkorlik subyektlariga aylantirish — mazkur institutning natijadorligini mezonlash imkonini beradi. Bu esa mahalla darajasida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, potensial nizolarni tizimli ravishda kamaytirishga xizmat qiladi.

Yoshlar yetakchilari va xotin-qizlar faollarining faoliyati ham iqtisodiy nizolar profilaktikasining muhim tarkibiy elementi sifatida shakllanmoqda. Yoshlarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni mehnat bozoriga moslashtirish hamda o'z iqtisodiy faoliyati uchun mas'uliyat hissini kuchaytirish orqali kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va huquqiy nizolar ehtimoli kamaytiriladi. Shu bilan birga, xotin-qizlarni tadbirkorlik, kasanachilik va hunarmandchilik faoliyatiga tizimli jalb etish ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirib, oilaviy va ijtimoiy munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni bartaraf etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar tahlili raqamlashtirish jarayonlarining mahalla institutining iqtisodiy nizolarni sudgacha hal etishdagi samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. Xususan, "onlayn mahalla" tamoyiliga asoslangan raqamli platformalarning joriy etilishi mahalla va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. Ushbu tizim orqali tadbirkorlarning murojaatlarini masofadan turib qabul qilish, ularni tezkor ko'rib chiqish hamda natijalari yuzasidan qayta aloqa o'rnatish imkoniyatlari kengayib, nizolarni hal etish jarayonining shaffofligi va ochiqligi ta'minlanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ishonch muhitini mustahkamlash orqali nizoli vaziyatlarning keskinlashuviga yo'l qo'ymaslikka xizmat qiladi.

Mahalla darajasida yagona ma'lumotlar bazalarining shakllantirilishi esa iqtisodiy nizolarni boshqarishning analitik va tizimli asoslarini kuchaytiradi. Tadbirkorlik subyektlari, ularning faoliyati, mavjud muammolar va yuzaga kelgan nizolar to'g'risidagi ma'lumotlarning markazlashgan holda yuritilishi nizolar dinamikasini kuzatish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda samarali profilaktik choralarni ishlab chiqish imkonini beradi. Mazkur yondashuv dalillarga asoslangan boshqaruv (evidence-based governance) tamoyillarini mahalla institutiga tatbiq etish orqali uning institutsional salohiyatini oshiradi.

Raqamlashtirish jarayonlari natijasida mahalla institutining faoliyati yanada tizimli va shaffof tus olmoqda. Murojaatlar va nizolarni elektron tarzda ro'yxatga olish, ularni monitoring qilish hamda hal etish bosqichlarini kuzatib borish imkoniyatlari boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada hisobdorlik va javobgarlik mexanizmlari kuchayib, nizolarni hal etish jarayonining sifat ko'rsatkichlari yaxshilanmoqda [4].

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliqqa oid nizolarni sudgacha hal etish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy islohotlar mazkur sohada tizimli va institutsional o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-223-son qarori bilan belgilangan chora-tadbirlar tadbirkorlik subyektlari va soliq organlari o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni sudgacha bosqichda samarali hal etishning yangi mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur qarorda asosiy maqsad sifatida soliqqa oid nizolarni hal etish jarayonida vaqt va moliyaviy xarajatlarni qisqartirish belgilangan bo'lib, bu holat iqtisodiy nizolarni muqobil tartibda hal etishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Amaliy jihatdan ushbu yondashuv tadbirkorlik subyektlari uchun ortiqcha byurokratik to'siqlarni kamaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini tezkor himoya qilish imkonini kengaytiradi.

Qaror bilan joriy etilgan tartibga ko'ra, soliqqa oid nizolarni ko'rib chiqish va ular yuzasidan xulosalar berish vakolatining aniq belgilanishi nizolarni ko'rib chiqish jarayonining huquqiy aniqligini ta'minlaydi. Xususan, soliq organlari qarorlaridan norozi bo'lgan tadbirkorlik subyektlarining murojaatlarini sudgacha bosqichda ko'rib chiqish instituti mustahkamlanib, bu orqali nizolarni sudga yetib bormasdan turib hal etish imkoniyati kengaymoqda. Shu bilan birga, jinoyat ishi doirasida yoki sud tartibida ko'rib chiqilayotgan nizolarning mazkur mexanizm doirasidan chiqarilishi yurisdiksiyaviy chegaralarning aniq belgilanganini ko'rsatadi [5].

Shuningdek, qabul qilingan xulosalarni majburiy tartibda ko'rib chiqish uchun tegishli davlat organlariga yuborish mexanizmining joriy etilishi nizolarni hal etish jarayonining ijro intizomini kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, qabul qilinayotgan qarorlarning amaliy ahamiyatini oshirib, ularning bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Tadbirkorlik subyektlarini ushbu jarayonlar haqida xabardor qilish majburiyatining belgilanishi esa ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini mustahkamlaydi.

Natijalar tahlili institutsional hamkorlik mexanizmlarining rivojlanishi mahalla institutining tadbirkorlik nizolarini sudgacha hal etishdagi samaradorligini sezilarli darajada oshirayotganini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyati orqali mahalla institutining ijtimoiy-huquqiy maqomi mustahkamlanib, uning aholi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi nizolarni bartaraf etishdagi koordinatsion roli kuchaymoqda. Ushbu tizim mahallani

jamiyatdagi birlamchi muvofiqlashtiruvchi bo'g'in sifatida shakllantirib, nizolarni markazlashmagan, ammo samarali tarzda hal etish imkonini bermoqda.

Soliq va moliya organlari bilan o'zaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi esa iqtisodiy nizolarni sudgacha hal etishning amaliy mexanizmlarini mustahkamladi. Mazkur jarayonda mahalla raisi va hokim yordamchisining ko'makdosh subyekt sifatida ishtirok etishi tadbirkorlik subyektlari va davlat organlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni muvozanatlashtirishga xizmat qilmoqda. Bu yondashuv nizolarni faqat huquqiy bahs sifatida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida ko'rib chiqish imkonini berib, ularni kompleks tarzda hal etishni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, "Mediatsiya to'g'risida" Qonun normalarining amaliyotga keng joriy etilishi mahalla institutining mediatorlik funksiyasini huquqiy jihatdan mustahkamladi. Fuqarolik va iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni tinch yo'l bilan hal etishning huquqiy asoslari kengayib, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan yarashtiruv mexanizmlarining samaradorligi ortdi. Bu esa nizolarni sud tizimiga olib chiqmasdan hal etish ulushining oshishiga xizmat qilmoqda [6].

Xulosa. Yuqoridagi holatlar umumlashtirilganda, mahalla instituti tadbirkorlik nizolarini suddan tashqari hal etishda tejamkor, shaffof va institutsional jihatdan mustahkam mexanizm sifatida shakllanayotgani kuzatiladi. Raqamlashtirish jarayonlari bilan uyg'unlashgan holda ushbu tizim nizolarni ko'rib chiqish tezligini oshirish, inson omilini qisqartirish va qarorlar qabul qilishda ochiqlikni ta'minlash imkonini bermoqda. Natijada mahalla instituti nafaqat nizolarni hal etuvchi subyekt, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi va huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim ijtimoiy-huquqiy platforma sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, mahalla institutining tadbirkorlik nizolarini sudgacha hal etishdagi samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan quyidagi aniq va amaliy takliflar ilgari suriladi:

Mahalla darajasida mediatsiya jarayonlarini rasmiylashtirish zarur. Buning uchun har bir MFYda mediatorlik faoliyatini olib boruvchi shaxslar (mahalla raisi, hokim yordamchisi) uchun majburiy qisqa muddatli sertifikatlash tizimini joriy etish lozim. Ushbu sertifikatlash "Mediatsiya to'g'risida" Qonun talablari asosida tashkil etilib, mediatorlik qarorlarining huquqiy kuchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mahallalarda ko'rib chiqilgan iqtisodiy nizolarni yagona elektron reyestrda kiritish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu reyestr orqali nizoning predmeti, taraflari, hal etish muddati va natijalari bo'yicha aniq ma'lumotlar shakllantirilib, keyinchalik takroriy nizolarni oldini olish hamda tahliliy monitoring olib borish imkoniyati yaratiladi. Mazkur tizim mavjud raqamli platformalar bilan integratsiya qilinishi lozim.

Soliq va tadbirkorlik bilan bog‘liq nizolar yuzasidan mahallalarda “birinchi murojaat nuqtasi” mexanizmini joriy etish taklif etiladi. Bunda tadbirkor soliq organiga yoki sudga murojaat qilishdan oldin majburiy tarzda mahalla orqali dastlabki ko‘rib chiqish bosqichidan o‘tadi. Ushbu tartib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-223-son qarori bilan uyg‘un holda ishlab chiqilib, nizolarni erta bosqichda bartaraf etish imkonini beradi.

Hokim yordamchilari faoliyatini baholash mezonlariga nizolarni oldini olish va hal etish ko‘rsatkichlarini kiritish zarur. Xususan, faqat bandlik yoki kredit ajratish emas, balki nechta iqtisodiy nizo sudgacha hal etilgani, nechta nizo profilaktika qilingani kabi indikatorlar asosiy KPI sifatida belgilanishi lozim. Bu ularning faoliyatini natijadorlikka yo‘naltiradi.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi mahalla institutining nafaqat nizolarni hal etishdagi, balki ularni oldini olish va tizimli boshqarishdagi rolini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi, 21.12.2023 yildagi PF-209-son. 25.12.2023-y., 06/23/209/0966-son; 12.02.2025-y., 06/25/17/0127-son; 11.09.2025-y., 06/25/163/0820-son; 27.12.2025-y., 06/25/258/1223-son

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi, 17.06.2020 yildagi PQ-4754-son. 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son; 28.07.2025-y., 06/25/117/0653-son.

<https://inacademy.uz/index.php/si/article/download/75459/47516/86458#:~:text=Shu%20bois%20mahalla%20institutining%20bandlik%20va%20tadbirkorlik%20sohasidagi%20roli%20ilmiy%20jihatdan%20tadqiq%20etilishi%20zarur.>

4. Abdumurod Xaqberdiyev. O‘zbekistonda nizolarni muqobil (suddan tashqari) va sudgacha hal qilishning samarali mexanizmlarini yo‘lga qo‘yilishi // Toshkent davlat yuridik universiteti, ilmiy maqola.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliqqa oid nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // Qonunchilik ma’lumotlar milliy bazasi, 11.07.2025 yildagi PQ-223-son. 12.07.2025-y., 07/25/223/0599-son.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 20.10.2025-y., 03/25/1089/0953-son.